

**ONA TILI DARSLIKLARIDA MANTIQ MAYDONI TIPIDAGI
TOPSHIRIQLARNING MAZMUNYI DIDAKTIKASI
(10–11-sinf darsliklari misolida)**

Sobitova Robiyaxon Salohiddin qizi

Qo'qon davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada 10–11-sinf ona tili darsliklarida berilgan mantiq maydoni tipidagi topshiriqlarning mazmuniy-didaktik xususiyatlari keng tahlil qilinadi. Darsliklarda uchraydigan argumentli esse, muammoli savollar, uslubiy tahlil, mantiqiy topishmoqlar, so'z ma'nosini izohlash va mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarning o'quvchilar tafakkuri, nutqiy kompetensiyasi hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: mantiq maydoni, didaktika, mustaqil fikrlash, argumentli esse, tanqidiy tafakkur, nutqiy kompetensiya, uslubiy tahlil, ona tili ta'limi.

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablarning biri — mustaqil fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, o'z nuqtayi nazarini asosli tarzda ifodalaydigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Zamonaviy jamiyat faqat tayyor ma'lumotni yod oladigan emas, balki uni tahlil qiladigan, xulosalovchi va amaliyotga tatbiq eta oladigan yoshlarni talab qilmoqda. Shu sababli bugungi ona tili ta'limida ham o'quvchining grammatik bilimini oshirish bilan bir qatorda uning tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mantiqiy fikrlash rivojlanishining nazariy asoslari psixologiya va pedagogika sohasidagi ko'plab olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan, P. Blonskiy, L. S. Vygotskiy, S. L. Rubinshteyn, P. Ya. Galperin, A. N. Leontiyev, A. R. Luriya, P. I. Zinchenko, A. A. Smirnov, B. M. Velichkovskiy, G. G. Vuchetich, Z. M. Istomina, G. S. Ovchinnikov hamda J. Piagetning ilmiy ishlari ushbu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Ularning tadqiqotlari mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat matematik va tabiiy fanlarda, balki kundalik hayotda hamda ijodiy faoliyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.⁴¹

Yangilangan 10–11-sinf ona tili darsliklarida berilgan mantiq maydoni tipidagi topshiriqlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar o'quvchini tayyor javobni qabul qilishga emas, balki izlanishga, fikr yuritishga, dalillashga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Natijada o'quvchi dars jarayonining oddiy tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylanadi.

⁴¹ «O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish» <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/5134/4414> 70-b

Mantiq maydoni tipidagi topshiriqlar an'anaviy mashqlardan keskin farq qiladi. Oddiy mashqlarda o'quvchi qoida yoki ma'lumotni takrorlashi mumkin, biroq mantiqiy topshiriqlarda u vaziyatni tahlil qiladi, sabab va oqibatni bog'laydi, turli qarashlarni solishtiradi va o'z munosabatini shakllantiradi. Shu jihatdan bunday topshiriqlar zamonaviy kompetensiyaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

10–11-sinf ona tili darsliklarida argumentli esse yozishga oid topshiriqlar alohida o'rin egallaydi. Bu topshiriqlar o'quvchining fikrni mantiqiy asoslash, dalillar bilan isbotlash va qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, darsliklarda keltirilgan mavzularning hayotiyliigi va ijtimoiy xarakterga ega ekanligi o'quvchilar tafakkurining faollashishiga xizmat qiladi.

Masalan, darslikdagi:

“Nima deb o'ylaysiz: televideniya dorilar reklamasi berilishi kerakmi yoki yo'q?” degan topshiriq muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchi bu savolga javob berish uchun, avvalo, reklamani jamiyat hayotidagi o'rni haqida o'ylaydi. U dorilar reklamasi insonlarni xabardor qilishi mumkinligini, ammo noto'g'ri foydalanilganda sog'liq uchun xavf tug'dirishini ham tushunadi. Ayrim o'quvchilar reklama tufayli odamlar o'z bilarmonlik bilan dori iste'mol qilishi mumkinligini aytsa, boshqalari reklamalar foydali ma'lumot manbai ekanini ta'kidlashi mumkin. Muhimi shundaki, o'quvchi o'z fikrini asoslashga harakat qiladi. Shu orqali unda tanqidiy va analitik tafakkur shakllanadi.

Yana bir topshiriqda:

“Boylar va kambag'allar bir xil soliq to'lashini to'g'ri deb bilasizmi?” degan savol berilgan. Bu topshiriq o'quvchini iqtisodiy tenglik va jamiyatdagi ijtimoiy qatlam haqida o'ylashga undaydi. O'quvchi faqat grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzmaydi, balki o'zining hayotiy qarashlarini ham ifodalaydi. Kimdir barcha inson qonun oldida teng bo'lishi kerakligini aytsa, boshqalar iqtisodiy imkoniyatlar turlicha ekanini asos qilib ko'rsatishi mumkin. Demak, bunday topshiriqlar o'quvchilarning ijtimoiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

Shuningdek, “Maktab uchun bir xil kiyim tanlanishiga qanday qaraysiz?” kabi topshiriqlar ham mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu mavzu orqali o'quvchi intizom, tenglik, shaxsiy erkinlik kabi tushunchalarni tahlil qiladi. O'quvchilar turli nuqtayi nazarni ilgari suradi va o'z fikrlarini himoya qiladi. Shu tariqa argumentli esse yozish jarayonini o'zlashtiradi.

Darsliklarda muammoli vaziyat yaratishga xizmat qiluvchi topshiriqlar ham ko'p uchraydi. Bunday topshiriqlar o'quvchini bir yoqlama fikrlashdan chiqarib, masalaga turli nuqtayi nazardan qarashga o'rgatadi.

Masalan:

“Laboratoriyalarda tadqiqot uchun hayvonlardan foydalanishga qanday qaraysiz?” degan topshiriq o'quvchini murakkab axloqiy va ilmiy muammolar haqida fikr yuritishga undaydi. O'quvchi bir tomondan ilm-fan taraqqiyoti uchun tajribalar muhim

ekanini tushunsa, ikkinchi tomondan hayvonlarga zarar yetkazish masalasi haqida ham o'ylaydi. Natijada o'quvchi masalaga hissiyot bilan emas, mantiqiy va tahliliy yondashishga o'rganadi. Mazkur topshiriqlarning muhim jihati shundaki, ular tayyor javobni talab qilmaydi. O'quvchi o'zi izlanadi, mustaqil qaror chiqaradi va o'z pozitsiyasini himoya qiladi. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Darslikdagi “Siz topishingiz kerak bo'lgan so'zlar o'zaro sinonim bo'lib, birinchisi turkiy, ikkinchisi esa fors-tojik tilidan o'zlashgan” kabi topshiriqlar ham o'quvchini izlanishga undaydi. O'quvchi til qatlamlari, sinonimik munosabatlar va uslubiy farqlar haqida fikr yuritadi.

Mantiq vaqti



Siz topishingiz kerak bo'lgan so'zlar o'zaro sinonim bo'lib, birinchisi – o'zbekcha (turkiy) so'z, ikkinchi esa fors-tojik tilidan o'zlashgan. Negadir birovni maqtashda, olqishlashda birinchi so'zdan, qarg'ashda esa ikkinchi so'zdan foydalanamiz.

Darsimiz mavzusidan uzoqlashmagan holda har ikki so'zni ham toping.

42

Bunday topshiriqlar o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish bilan birga ularni tafakkur qilishga, ma'nolar orasidagi nozik farqlarni anglashga ham o'rgatadi.

Darsliklarda “Mantiq vaqti” rukni ostida beriladigan alohida topshiriqlar ham mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning tafakkur faolligini oshiradi.

Masalan, “So'nggi yillarda ommalashgan bu ism qizlar ismi. 6 harfdan iborat...” kabi topshiriqlarda o'quvchi har bir detal ustida fikr yuritadi.

Mantiq vaqti

So'nggi yillarda ommalashgan bu ism – qizlar ismi. 6 harfdan iborat. Agar 1-harfini olib tashlasak, qizlarga qo'yiladigan boshqa ism hosil bo'ladi. Qolgan 5 ta harfdan oxirgisini olib tashlasak, o'tmishdagi lavozimlardan birining nomi paydo bo'ladi. Qolgan 4 ta harfdan birinchisini olib tashlasak, ayrim erkak ismlarining boshlanmasi kelib chiqadi. Qolgan 3 harfdan oxirgisi olib tashlab, notalardan birini hosil qilamiz. Ushbu 6 harfli ismni toping.

43

U harflarni tahlil qiladi, ma'nolarni bog'laydi va yakuniy xulosaga keladi. Bu kabi topshiriqlar diqqatni jamlash, mantiqiy bog'lanish, tezkor tafakkur yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, o'quvchi til va tafakkur o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni ham anglay boshlaydi.

Ushbu rukndagi topshiriqlar o'quvchini yashirin ma'noni anglashga, voqelik ortidagi mazmunni tushunishga o'rgatadi. Masalan, urush yillariga oid topshiriqda qashshoqlik, xalqning birdamligi va insoniy sabr tasvirlanadi.

⁴² 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 22-b

⁴³ 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 39-b

Mantiq vaqti

1943-yilda yurtimizda misli ko'rilmagani qashshoqlik hukm suradi. Xalq to'yib ovqatlanmas olmas ham edi. Bir yoqda urush. Urushga bormaganlar bor-budini frontga jo'natayotgan paytlar.

Yaqindagina o'g'lonini frontga jo'natgan 10-15 oila ayollari bir xonadonga yig'ilib o'zlarini biroz ovutgan bo'lishardi. Boshqalar o'z uyida, bu 10-15 oila esa bir xonadonda farzandlari haqiga duo qilish uchun to'planishar edi.

Doim yig'inlarga mezbun bo'ladigan oila xonadonida 10-15 ta oila uchun aziz bir narsa bor edi. O'sha narsani bir necha so'z bilan aytib bering.



68

44

Bu o'quvchining tarixiy tafakkurini, obrazli fikrlashini, mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Menimcha

25.6-mashq. Uzbaza.uz saytidan olingan quyidagi mantiqiy jumboqning javobini toping.

Jon Smidt yakshanba kuni kechki payt o'ldirildi. Bu vaqtda uyda 5 kishi bor edi:
1) Janob Smidtning xotini; 2) shaxsiy oshpaz; 3) bosh xizmatkor; 4) xizmatkor;
5) bog'bon.



Detektiv ularning har biri bilan suhbat qilib, jinoyat sodir etilgan vaqtda nima bilan shug'ullanayotgan ekanliklarini so'raydi. Shunda:

- Smidt xonim o'z xonasida kitob o'qiganini;
- oshpaz nonushta tayyorlayotganini;
- bosh xizmatkor hovlida gul ko'chatlarini qabul qilayotganini;
- xizmatkor idish-tovoqlarni yuvayotganini;
- bog'bon tomorqaga suv quyayotganini aytadi.

Ushbu suhbatdan so'ng detektiv jinoyatchi kim ekanini darhol fosh qiladi. Savol: janob Smidtning qotili kim?

45

Mazkur topshiriq o'quvchilarning sabab-oqibat asosida fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Topshiriqda detektiv voqea tasvirlangan bo'lib, o'quvchi berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatchini aniqlashi kerak bo'ladi. Ushbu mashq ona tili darslarida matn ustida ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda juda muhim hisoblanadi.

Topshiriqdagi eng muhim nuqta — oshpazning “nonushta tayyorlayotganini” aytishidir. Chunki voqea yakshanba kuni kechqurun sodir bo'lgan. Demak, kechki paytda nonushta tayyorlanishi mantiqan noto'g'ri holat hisoblanadi. O'quvchi aynan mana shu nomuvofiqlikni topishi kerak bo'ladi. Bu topshiriq o'quvchini matndagi detallarni diqqat bilan kuzatishga, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlashga, yashirin ma'noni topishga o'rgatadi. Shuningdek, topshiriq o'quvchilarning e'tiborini

⁴⁴ 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 68-b

⁴⁵ 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 90-b

kuchaytiradi. Chunki matnni yuzaki o'qigan o'quvchi noto'g'ri xulosaga kelishi mumkin. Faqat sinchkov kuzatish va mantiqiy tahlil orqali to'g'ri javob topiladi.

Mantiq vaqti



Mustaqil bajaraman

Topshiriq. O'zingizning rezyume-ma'lumotnomangizni tayyorlang.

Inglizxonlar rus tilini o'rganishda ajoyib usulni qo'llashadi: ko'p qo'llanadigan ruscha ibora va gaplarni ularga talaffuz jihatidan yaqin bo'lgan inglizcha iboralarga bog'lab yodlashadi. Shunday iboralardan biri "Yellow-blue bus" sanaladi. O'ylab ko'ringchi, "sariq-ko'k avtobus" ma'nosidagi inglizcha iboradan rus tilidagi qaysi gapni oson yodlashda foydalaniladi?

Ushbu topshiriq o'quvchilarning assotsiativ tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Topshiriqda ingliz tilidagi "yellow-blue bus" birikmasi rus tilidagi talaffuzga yaqin ibora bilan bog'lanishi aytiladi. O'quvchi bu yerda oddiy tarjima bilan shug'ullanmaydi, balki tovush o'xshashligi, talaffuz yaqinligi va eslab qolish mexanizmini tahlil qiladi. Demak, topshiriq til birliklari o'rtasidagi fonetik bog'lanishni anglashga yordam beradi. Bu mashqning eng muhim jihati shundaki, u o'quvchini noodatiy fikrlashga undaydi. Oddiy grammatik mashqlarda o'quvchi qoidani yodlaydi, biroq bu topshiriqda u mantiqiy bog'lanishni mustaqil topishi kerak bo'ladi. O'quvchi "yellow-blue bus" iborasining rus tilidagi talaffuz jihatidan o'xshash shaklini izlashi jarayonida xotira, tafakkur va kuzatuvchanlikni birgalikda ishga soladi.


Darslikning "Mantiq vaqti" qismidan o'rin olgan yana bir topshiriq quyidagicha: akvariumdagi baliqlar tasviri bilan bog'liq mantiqiy test

Bu topshiriq o'quvchilarning fazoviy tafakkuri va kuzatuvchanligini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchidan akvariumning bir tomondan ko'rinishi asosida uning ikkinchi tomondan qanday ko'rinishini aniqlash talab etiladi. Bu jarayonda o'quvchi oddiy kuzatish bilan cheklanmaydi, balki predmetlarning joylashuvi, yo'nalishi va o'zaro nisbatini tahlil qiladi. O'quvchi har bir baliqning qaysi tomonga qarayotgani, akvariumdagi joylashuvi, ikkinchi tomondan qanday aks etishi haqida mushohada yuritadi.

Bu esa tafakkurning analitik shaklini rivojlantiradi. O'quvchi biror variantni taxmin bilan emas, dalillash orqali tanlaydi. U noto'g'ri variantlarni tahlil qilib, asta-sekin to'g'ri javobga yaqinlashadi. Shu jihatdan topshiriq o'quvchilarning tanqidiy fikrlashiga ham xizmat qiladi.


MANTIQ VAQTI**Quyidagi testni bajaring.**

Akvariumdagi baliqlarni har ikki tomonidan ham ko'rish mumkin. Ikki do'st akvariumni ikki tomondan bir xil vaqtda suratga olishga qaror qilishdi. Quyidagi rasmda akvariumning birinchi tomoni ko'rinishi berilgan bo'lib, unda sakkiz dona baliqning turli yo'nalishlarda suzayotganini ko'rish mumkin.



164

Quyidagilardan qaysi biri akvariumning ikkinchi tarafdan olingan surati hisoblanadi?



Xulosa qilib aytganda, 10–11-sinf ona tili darsliklarida berilgan mantiq maydoni tipidagi topshiriqlar zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, analitik tafakkurini, tanqidiy yondashuvini, nutqiy kompetensiyasini, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Darsliklarda berilgan argumentli esse, mantiq vaqti, muammoli savollar, so'z ma'nosini tahlil qilish, uslubiy xatolarni aniqlash va matn bilan ishlashga oid topshiriqlar o'quvchini faol fikrlashga undaydi. Natijada ona tili fani nafaqat grammatik bilim beruvchi, balki tafakkurni rivojlantiruvchi fan sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois zamonaviy ona tili ta'limida mantiq maydoni tipidagi topshiriqlardan samarali foydalanish o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B va boshqalar. 11-sinf ona tili darsligi., O'qituvchi" NMIU, 2020
2. 10-sinf uchun darslik / B. Mengliyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Xalilova R, "Ona tili o'qitish metodikasi". Buxoro: "Fan va ta'lim"-2022
4. «O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish» <https://maktabgacha-va-maktab-talimi-jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/5134/4414>
5. To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. "O'zbek tili o'qitish metodikasi", O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti: Toshkent - 2006